



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 76 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises.....	60
Matchanov Umirzak Seytjanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	



O'ZBEKISTONDA BARQAROR DAVLAT QARZI SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: davlat qarzi, qarz limitlari, makroiqtisodiy indikatorlar, moliyaviy vosita, iqtisodiy o'sish, geosiyosiy ziddiyatlar, byudjet xarajatlari, valyuta xavflari, iqtisodiy samara.

Abstract: This article analyzes the methodology for eliminating double taxation based on the experience of the United States.

Key words: double taxation elimination methodology, cross-border, tax burden, dividend, tax credit, economic substance priority, international tax rules, international taxation.

Аннотация: В данной статье проанализирована методология ограничения двойного налогообложения на основное опыт США.

Ключевые слова: методология устранения двойного налогообложения, трансграничный, налоговое бремя, дивиденды, налоговый кредит, приоритет экономического содержания, международные налоговые правила, международное налогообложение.

KIRISH

Davlat qarzi iqtisodiy taraqqiyot uchun zarur bo'lgan resurs manbai bo'lsa-da, uning haddan tashqari o'sishi makroiqtisodiy barqarorlikka tahdid solishi mumkin. Davlat qarzining yuqori darajada bo'lishi byudjet defitsiti, inflyatsiya bosimi va tashqi iqtisodiy xatarlarning kuchayishiga olib keladi. Shu boisdan uni samarali boshqarish — makroiqtisodiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy siyosatini yuritishda davlat moliyasi ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, uning tarkibiy qismi sifatida davlat qarzi muhim moliyaviy vosita hisoblanadi. O'zbekiston ham mustaqillik yillarida to'g'ri va oqilona davlat qarzi siyosati orqali iqtisodiy o'sishga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ayni paytda globallashuv, tashqi moliyaviy bosimlar, pandemiya oqibatlar, geosiyosiy ziddiyatlar va iqlim o'zgarishi kabi tashqi omillar davlat moliyaviy tizimini mustahkamlash, xususan, davlat qarzi siyosatida barqaror yo'nalishlarni belgilashni talab qilmoqda. Shu bois, bugungi kunda O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirish dolzarb va uzoq muddatli strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat qarzi — davlat tomonidan ichki va tashqi manbalar orqali jalb etiladigan moliyaviy resurslar hisoblanadi. Qarz mablag'lari orqali infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish, iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash mumkin. Ammo davlat qarzi haddan tashqari oshsa, uning soliq bazasiga bosimi ortadi, tashqi to'lovlar bilan bog'liq xatarlar yuzaga keladi, byudjet xarajatlari esa samarasiz yo'nalishi mumkin. Shu bois, davlat qarzi siyosatida samaradorlik, shaffoflik va uzoq muddatli barqarorlik kabi tamoyillar ustuvor bo'lishi shart.

So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat qarzi miqdori o'sib bordi. Bu, birinchi navbatda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish va pandemiya sharoitida ijtimoiy xarajatlarni qoplash zarurati bilan bog'liq. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik orqali mamlakat tashqi moliyaviy resurslarga yetarlicha kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Biroq, davlat qarzi miqdorining o'sishi bilan birga uning iqtisodiy samaradorligi, qaytarish qobiliyati, valyuta xatarlari va sudratuvchi loyihalarning natijadorligi dolzarb masalaga aylangan.

Shu bois, bugungi kunda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirish — iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy suverenitetni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Jahon amaliyotida ko'pgina mamlakatlar davlat qarzini samarali boshqarish uchun uzoq muddatli strategiyalar, shaffof hisobot tizimlari, qarz limitlari va makroiqtisodiy indikatorlar bilan bog'langan siyosatni amalga oshirmoqda. Xususan, Singapur, Kanada, Chili va Janubiy Koreya



tajribalari shundan dalolat beradiki, davlat qarzi faqat joriy xarajatlar uchun emas, balki iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi loyihalarga yo'naltirilishi lozim.

O'zbekiston uchun ham xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda davlat qarzi siyosatida ustuvor yo'nalishlarni belgilash zarur. Bu yo'nalishlar davlat moliyasining muvozanatini saqlash, qarz qaytarish salohiyatini kuchaytirish va davlat byudjetini kelajakdagi fiskal xatarlardan himoya qilishga xizmat qiladi.

Uzoq muddatli va barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirish uchun quyidagi yo'nalishlar dolzarb ahamiyatga ega:

maqsadli va samarali qarz siyosatini yuritishda qarz faqat qaytarish imkoniga ega bo'lgan, yuqori iqtisodiy samara beruvchi loyihalarga yo'naltirilishi kerak;

qarz limitlarini aniq belgilashda davlat qarzi miqdori YAIMning ma'lum bir qismi bilan chegaralanishi, qarz qaytarish qobiliyati bilan mutanosib bo'lishi lozim;

qarz portfelini diversifikatsiya qilishda tashqi va ichki qarzlarni tarkibini o'zaro moslashtirish, valyutaviy xatarlarni kamaytirish zarur;

fiskal shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirishda qarz shartnomalarining ochiqligi, jamoatchilik va parlament nazoratini ta'minlash talab etiladi.

Global iqtisodidagi beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar, energiya resurslari narxlarining o'zgaruvchanligi, oziq-ovqat xavfsizligi, iqlim o'zgarishi kabi muammolar davlat moliyasiga yangi bosimlarni keltirmoqda. Bunday sharoitda davlat qarzi siyosatini barqaror va uzoq muddatli yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish muqarrar.

O'zbekistonda ijtimoiy ehtiyojlar ortib borayotgani, iqtisodiy o'sishga qaratilgan investitsiya loyihalarining ko'pligi, tashqi bozorlarga bog'liqlikni pasaytirish zarurati mavjud. Bu sharoitda davlat qarzini iqtisodiy o'sish drayveriga aylantirish — davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida aytish joizki, O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirish — bu shunchaki moliyaviy chora-tadbirlar emas, balki milliy iqtisodiyot barqarorligi, ijtimoiy taraqqiyot va kelajak avlodlar manfaatini ta'minlashga qaratilgan strategik yondashuvdir. Ushbu masalaning dolzarbligi nafaqat mavjud iqtisodiy muammolar, balki global o'zgarishlar va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yangi xatarlar bilan ham bevosita bog'liqdir. Shu sababli, davlat qarzi siyosatida izchillik, muvozanat, professional tahlil va xalqaro tajribaga suyangan ilmiy yondashuvlar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonuni¹ (yangi tahriri) — davlat qarzining turlari, boshqaruv mexanizmlari, limitlar hamda qarzga xizmat ko'rsatish tartibini aniq belgilab beradi. Ushbu hujjat barqaror qarz siyosatini yuridik jihatdan mustahkamlashda asosiy manba hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Iqtisodiy taraqqiyot hamda kambag'allikni qisqartirish vazirligi ma'lumotlari asosida 2020–2024-yillar byudjet ijrosi, davlat qarzi tuzilishi, tashqi va ichki qarz miqdori bo'yicha aniq va ishonchli statistik ma'lumotlar taqdim etilgan. Tahlilda ushbu ma'lumotlardan foydalangan holda O'zbekistondagi qarz dinamikasi va tarkibiy o'zgarishlar ko'rib chiqilgan.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yagona milliy rivojlanish strategiyasi — moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda davlat moliyasini isloh qilish bo'yicha ustuvor maqsadlarni belgilaydi. Davlat qarzini samarali boshqarishni islohotlar tizimiga kiritgani bilan ushbu strategiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy va amaliyotchi mutaxassislar asarlari tahlil qilinganda, iqtisodiyot fanlari doktori A. R. Sattarovning asosiy fikrlariga e'tibor qaratilganda, davlat qarzi siyosatini shakllantirishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash asosiy mezon bo'lishi zarur. Uning fikricha, soliq-byudjet siyosatini qat'iylashtirish orqali davlat qarzining tez o'sishining oldini olish mumkin. Shuningdek, byudjetni rejalashtirishda intizomli yondashuv talab etiladi. Bu yondashuv "qarzni qaytarish qobiliyati"ni ta'minlashni ustuvor qilgan holda, davlatning moliyaviy mustaqilligini saqlab qolishni taklif etadi².

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari S. R. Allayarov va Sh. Baxtiyorovalarning fikricha, valyuta, foiz va likvidlik xatarlaridan kelib chiqib, xedjing strategiyalari hamda diversifikatsiya vositalari taklif qilinadi³. Ular, shuningdek, O'zbekistonda davlat qarzini xalqaro standartlarga muvofiq boshqarish, shaffoflikni ta'minlash va huquqiy muhitni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydilar⁴.

TDIU Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar kafedrasini professor-o'qituvchisi O. Xamdovning fikriga ko'ra, ichki va tashqi qarzni samarali taqsimlash, davlat qarzi strategiyasini takomillashtirish yo'llarini ishlab

1 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 29.04.2023 yildagi O'RQ-836-son <https://lex.uz/ru/docs/-6446817?ONDATE2=02.08.2023&action=compare>

2 Sattarov Ravshan Alimovichning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

3 Financial Risks in Uzbekistan Debt Management..., dekabr 2024.

4 The Effective Ways of Management..., dekabr 2024



chiqish muhimdir. Unga ko'ra, davlat qarzini samarali boshqarish — davlatning makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosatining ajralmas yo'nalishidir. Tashqi qarz ichki qarzga nisbatan xavfliroq hisoblanadi. Valyutada olinayotgan qarzlarni uchun valyuta kursini prognozlash mexanizmlari joriy etilishi zarur. Shu bilan birga, davlat kafolatida berilmaydigan qarzlarni soni ortmoqda — davlat korxonalarini o'z mablag'larini mustaqil jalb etmoqda.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar va tadqiqot markazlari hisobotlari asosida Jahon banki (World Bank), Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Osiyo taraqqiyot banki (ADB) hamda Yevroosiyo taraqqiyot bankining O'zbekiston bo'yicha tayyorlagan moliyaviy ko'rsatkichlari va islohotlar tahlili — mamlakatning tashqi qarz siyosati, qayta moliyalash salohiyati va qarz qaytarishdagi tavakkalchiliklarni ochib beradi.

IMF'ning 2023-yilgi Article IV Consultation Report for Uzbekistan hujjatida mamlakatning fiskal siyosati va tashqi qarzni boshqarish strategiyasi atroficha tahlil qilingan hamda tavsiyalar berilgan. Bu hisobotlarda fiskal intizomni mustahkamlash, aniq maqsadli investitsiya siyosatini yuritish va byudjet shaffofligini ta'minlash asosiy yo'nalishlar sifatida ko'rsatilgan.

Debt Sustainability Analysis (DSA) — davlat qarzining barqarorligi va qaytarish qobiliyatini baholaydigan xalqaro standart hisoblanadi. U O'zbekistondagi qarzning yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan miqdorini, to'lov qobiliyatini va valyuta xatarlarini aniqlashda qo'llaniladi.

Xalqaro akademik adabiyotlar va konseptual yondashuvlar doirasida Ricardo-Barro Equivalence Theory, Keynesian fiscal stimulus va Debt Overhang Hypothesis — davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini turlicha talqin qiluvchi nazariy modellar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu nazariyalar orqali O'zbekistondagi real holat modellashtirilib, strategik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon yaratildi.

Reinhart & Rogoff (2010) tomonidan olib borilgan "Growth in a Time of Debt" tadqiqotida esa davlat qarzi ma'lum miqdordan oshgan holatlarda iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkinligi ilgari suriladi. Ushbu yondashuv O'zbekiston uchun qarz miqdorini oqilona cheklash zarurligini ko'rsatib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yozish jarayonida tadqiqotning ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlash maqsadida bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Xususan, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil hamda guruhlash usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Mazkur metodlar yordamida davlat qarzi siyosatining shakllanishi, rivojlanish dinamikasi, tarkibiy o'zgarishlari, xalqaro amaliyot bilan solishtirma tahlili va O'zbekistondagi mavjud holat modellashtirildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar tahlili orqali dolzarb ilmiy qarashlar umumlashtirilib, real statistik ma'lumotlar asosida muammo tahlili va amaliy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat qarzining miqdori, iqtisodiy o'sish sur'atlari va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Quyidagi jadvalda 2018–2024-yillar davomida O'zbekistonda ushbu uch ko'rsatkich o'rtasida yuzaga kelgan dinamik o'zgarishlar bayon etilgan.

1-jadval. 2018–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida davlat qarzi, YAIM o'sishi va inflyatsiya darajasi o'rtasidagi o'zgarishlar⁵

Yil	Davlat qarzi (mlrd. \$)	YAIM o'sishi (%)	Inflyatsiya (%)
2018	17.2	5.1	14.3
2019	19.5	5.6	13.0
2020	21.3	1.6	11.1
2021	23.8	7.4	10.0
2022	25.1	5.7	9.5
2023	26.7	5.3	9.0
2024	28.0	5.5	8.7

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2018–2024-yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi 17,2 milliard AQSh dollaridan 28 milliard AQSh dollarigacha oshgan. Bu davrda qarz hajmidagi o'sish muttasil va barqaror tarzda kuzatilgan bo'lib, yetti yil ichida davlat qarzi qariyb 63 foizga ko'paygan.

5 Muallif tomonidan tayyorlandi.



2024-yilda maksimal darajaga yetgan. Bu esa iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional sohalarda ijobiy o'zgarishlar kechayotganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, boshqa faktorlarning ham o'sishda davom etayotgani umumiy barqarorlik va rivojlanish jarayonining mustahkamlanayotganini anglatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat qarzi siyosatida samaradorlikni oshirish uchun, avvalo, qarz olish jarayonida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash muhimdir. Har bir qarz shartnomasi ommaga ochiq tarzda e'lon qilinishi, jalb qilingan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati kuchaytirilishi zarur. O'rta va uzoq muddatli qarz strategiyasini ishlab chiqishda esa qarz foiz stavkalari, to'lov muddatlari hamda qayta moliyalash xavfi inobatga olinishi va bu asosda optimal davlat qarzi portfelini shakllantirish talab etiladi. Shuningdek, iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi loyihalarga ustuvorlik berish lozim bo'lib, qarz mablag'lari asosan infratuzilma, sanoatni modernizatsiya qilish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilishi kerak. Tashqi xavflarga bardoshlilikni kuchaytirish nuqtai nazaridan xalqaro qarzlarning valyuta tarkibi va foiz stavkalarining o'zgaruvchanligi bilan bog'liq xavflarni minimallashtirish strategiyasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, davlat qarzi iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi muhim moliyaviy vosita bo'lishi mumkin, biroq uning ijobiy samarasini faqat oqilona boshqaruv, shaffoflik, strategik rejalashtirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi tizimli siyosat orqali ta'minlash mumkin. O'zbekiston o'zining davlat qarzi siyosatini yanada takomillashtirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikka erishish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. Oussama Elkhalfi, Rachid Chaabita, Mounir Benboubker, Mousaab Ghoujdam, Kamal Zahraoui, Hicham El Alaoui, Sara Laalam, Ismail Belhaj, Hind Hammouch. The impact of external debt on economic growth: The case of emerging countries. *Research in Globalization*, Volume 9, 2024, Article 100248. ISSN 2590-051X. <https://doi.org/10.1016/j.resglo.2024.100248>
3. Keshmeer Makun. External debt and economic growth in Pacific Island countries: A linear and nonlinear analysis of Fiji Islands. *The Journal of Economic Asymmetries*, Volume 23, 2021-yil iyun.
4. Irfan Qureshi, Zara Liaqat. The long-term consequences of external debt: Revisiting the evidence and inspecting the mechanism using panel VARs. *Journal of Macroeconomics*, Volume 63, 2020-yil mart.
5. Samson Edo Nneka, Esther Osadolor Isuwa, Festus Dading. Growing external debt and declining export: The concurrent impediments in economic growth of Sub-Saharan African countries. *International Economics*, Volume 161, 2020-yil may, B. 173–187.
6. Vesna Georgieva Svrtinov, Olivera Gjorgieva-Trajkovska, Vlatko Paceskoski. External debt as a fundamental problem for the countries in development in the world economy. *International Journal of Sciences: Basic and Applied Research (IJSBAR)*, Volume 18, No. 2, B. 20–28, 2014-yil noyabr.
7. Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – Toshkent: Noshir, 2011. – 478 b.
8. Sheraliyev J. J. Koronavirus pandemiyasi davrida O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi barqarorligini ta'minlash yo'llari. 2020-yil 7-may.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5030957>
10. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 6-may, O'RBQ-370-son. <https://lex.uz/docs/-2382409>
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb-sayti: <https://cbu.uz>
12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti: <http://www.imf.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>